

YOSHLAR MA'NAVIY QIYOFASINI SHAKLLANTIRISHDA MAHALLIY O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING O'RNI

To'lanboyev Shavkatbek G'ayratbek o'g'li¹

¹ Andijon Davlat Pedagogika Instituti magistranti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 03.07.2025

Revised: 04.07.2025

Accepted: 05.07.2025

KALIT SO'ZLAR:

mahalla, yoshlar
siyosati, ma'naviy
tarbiya, fuqarolik
jamiyati, ijtimoiy
institutlar, o'zini o'zi
boshqarish.

Mazkur maqolada yoshlar ma'naviy qiyofasini shakllantirishda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rni, ularning funksional vazifalari, yoshlar bilan ishlashdagi muammolar va ularni hal etish mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi amaliyotida mavjud bo'lgan ijtimoiy institutlar faoliyatiga ham e'tibor qaratiladi.

KIRISH. Yoshlar har qanday jamiyatning istiqboli, uning ertangi kuni hisoblanadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida yosh avlodning ma'naviy-axloqiy qiyofasini yuksaltirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu borada mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalar muhim ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritmoqda. Bugungi globallashuv davrida yoshlar ongiga turli salbiy g'oyalar va axborotlar kirib borayotgan bir paytda, ularning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish, ma'naviyatli, yetuk shaxs sifatida shakllanishida mahallaning tutgan o'rni beqiyosdir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari - fuqarolarning xalq hokimiyatini bevosita amalga oshirishi, davlat va jamiyat ishlarida to'g'ridan -to'g'ri ishtirok etishi vositalaridan biri. Asosiy vazifasi fuqarolarni mahalliy ahamiyatga bog'liq masalalarni hal qilishda mustaqil faoliyat olib borishini ta'minlashdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (105-modda) va "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida" (yangi tahriri) O'zbekiston Respublikasining qonuni (1999 yil 14 aprel)da F.o.o.b.o. huquqiy holati ko'rsatib o'tilgan. Ushbu qonunga ko'ra, F.o.o.b.o. quyidagilardir: shaharcha, qishloq, ovul fuqarolarining, shuningdek, shahar, shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla fuqarolarining yig'ini; fuqarolar yig'inining kengashi; fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar; fuqarolar yig'inining taftish komissiyasi; tuman markazidan olisda joylashgan va borish qiyin bo'lgan shaharchalar, qishloqlar va ovullarda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda tuziladigan ma'muriy komissiya. F.o.o.b.o. mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi. F.o.o.b.o. yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi, namunadagi muhrga ega bo'ladi va mahalliy davlat hokimiyati organlarida ro'yxatga olinishi kerak.

O'zbekistonda 10 mingdan ortiq F.o.o.b.o. faoliyat ko'rsatmoqda. Fuqarolar yig'ini organlarini va ularning mansabdor shaxslarini saylash fuqarolarning qonunda belgilangan saylov huquqlari kafolatlarini ta'minlagan holda, umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin yoki ochiq ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi. "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida" qonun qabul qilingan (2004 yil 29 agtr.).

Fuqarolar yig'ini — fuqarolar o'zini-o'zi boshqarishining yuqori organi bo'lib, aholi manfaatlarini ifodalash va uning nomidan tegishli hududda amal qiluvchi qarorlar qabul qilish huquqiga ega. Fuqarolar yig'inida 18 yoshga to'lgan hamda shaharcha, qishloq, ovul va mahalla hududida doimiy yashayotgan shaxslar qatnashadi. "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonunda shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini va shahardagi mahalla fuqarolar yig'inining vakolatlari ko'rsatilgan. Fuqarolar yig'inining qarorlarini bajarish va fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining fuqarolar yig'inlari oraliq davridagi joriy faoliyatini amalga oshirish uchun fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli), uning maslahatchilari, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarning raislari va yig'inning mas'ul kotibidan iborat tarkibda fuqarolar yig'inining kengashi tuziladi. F.o.o.b.o.ning faoliyatini tashkil etishni uning kengashi hamda fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli) amalga oshiradi. Fuqarolar yig'ini kengashi o'z devoniga ega bo'lishi mumkin, uning xodimlari soni yig'in tomonidan belgilanadi. Fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli), mas'ul kotibi va kengash devoni xodimlari fuqarolar yig'inining mablag'lari hisobiga ham, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahalliy byudjet mablag'lari hisobiga ham ta'minlanishi mumkin. Taftish komissiyasi F.o.o.b.o. moliyaxo'jalik faoliyatini tekshirish uchun tuziladi. Ma'muriy

komissiya ma'muriy huquqbuzarliklarga oid o'z vakolatlari doirasidagi ishlarni ko'rib chiqish uchun tuziladi.

F.o'.o'.b.o.ning faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida respublika oqsoqollar Kengashi, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish ishlari bo'yicha viloyat, tuman, shahar muvofiqlashtirish kengashlari tuzilishi mumkin. F.o'.o'.b.o. faoliyatining moliyaviy asosi o'z mablag'laridan, xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tomonidan belgilangan tartibda ajratiladigan byudjet mablag'laridan, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayir-ehsonlaridan, shuningdek, qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan mablag'lar orqali ta'minlanishi mumkin.

Mahalla va yoshlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanishicha, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalar, jamiyat hayotining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Bu organlar bevosita aholining ehtiyoj va manfaatlariga xizmat qiladi. Ayniqsa, yoshlar bilan ishlash, ularning bandligini ta'minlash, huquqiy va ma'naviy tarbiyasiga oid masalalarda mahallaning faoliyati muhim ahamiyatga ega.

Mahallalarda yoshlar yetakchilari, otaxon-u onaxonlar kengashi, xotin-qizlar faollari hamda yoshlar ittifoqi vakillari orqali yoshlar bilan bevosita ishlovchi ijtimoiy guruhlar shakllangan. Bu guruhlar orqali yoshlar orasida jinoyatchilik, diniy ekstremizm va giyohvandlik kabi salbiy holatlarning oldi olinmoqda.

Mahallaning funksional vazifalari

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida yoshlarga oid quyidagi yo'nalishlar alohida ahamiyat kasb etadi:

1. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish;
2. Yoshlar bandligini ta'minlashga ko'maklashish;
3. Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni aniqlash va ularni qo'llab-quvvatlash;
4. Huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha targ'ibotlar olib borish;
5. Sport va madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali yoshlar bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishini ta'minlash.

Yuqoridagi vazifalarning barchasi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning samarali bajarilishi yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston tajribasi va davlat dasturlari

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmon va qarorlari yoshlar siyosatini amalga oshirishda mahallaning rolini yanada kuchaytirdi. Jumladan: - "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi;

- “Obod mahalla” va “Obod qishloq” dasturlari;
- “Yoshlar daftari” orqali ijtimoiy himoya tizimining kengaytirilishi;
- Yoshlar yetakchisi institutining joriy qilinishi.

Mazkur dasturlar doirasida mahalla faollarining yoshlar bilan ishlashdagi vakolatlari kengaytirilib, ularning resurslar bilan ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratildi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, mahallalar yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda bevosita ishtirok etuvchi kuchli fuqarolik institutlaridan biridir. Ularning faoliyatini yanada kuchaytirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yoshlar yetakchilari malakasini oshirish orqali bu tizimning samaradorligini yanada oshirish mumkin. Shuningdek, yoshlar bilan ishlashda innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va psixologik xizmatlarni ham keng joriy qilish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi. 2018.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagi PF-6260-son Farmoni.
5. Mahalla tizimini rivojlantirish bo'yicha 2022–2026-yillarga mo'ljallangan strategik dastur.
6. Internet manbalar: www.lex.uz, www.stat.uz